



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 3 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 9, НОМЕР 3

LOOK TO THE PAST
VOLUME 9, ISSUE 3



ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ермегов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Баҳадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Аҳмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллажаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

Турсунова Юлдуз Бобоқулловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Dilshod Komolov, Asilbek Zulfiqorov YANGI O‘ZBEKISTONDA ADVOKATURA INSTITUTINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI.....	5
2. Faxriddin Yormatov, Nurullo Tursunov JAMIYAT HAYOTIDA NURONIYLARNING TUTGAN O‘RNI VA YANGI O‘ZBEKISTONDA ULARNI HAR TOMONLAMA QO‘LLAB-QUVVATLASHNING AMALIY IFODASI.....	11
3. Nodira Toliboyeva O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNI TA‘LIM TIZIMIGA JALB ETISH: TARIXIY TAJRIBA VA MUAMMOLAR.....	18
4. Гулчехра Дадамирзаева СОВЕТЛАРНИНГ КОСИБ-ХУНАРМАНДЧИЛИК ИШЛАБ ЧИҚАРИШИ СОҲАСИДАГИ ДАВЛАТ СИЁСАТИ ВА УНИНГ ОҚИБАТЛАРИ.....	23
5. Akmal Mengliboyev QIZIL ARMIYA BOSQINIGA QARSHI SURXON VOHASIDA KURASHNING BOSHLANISHI.....	32
6. Ulug‘bek Mirzaliyev, Farhod Umurzoqov SIRDARYO VA JIZZAX VILOYATLARIDAGI URBANIZASIYA JARAYONLARI.....	39
7. Абдисаттор Қосимов ЧОРВАЧИЛИКДА СУРХОН-ШЕРОБОД ВОҲАСИ АСРИЙ ХЎЖАЛИК АНЪАНАЛАРИ.....	45
8. Sardorbek Rahimberdiyev TRANSMILLIY MIGRATSIYA SHAROITIDA O‘ZBEK MIGRANTLARINING MADANIY IDENTIFIKATSIYASI VA KUNDALIK HAYOT STRATEGIYALARI (KOREYA RESPUBLIKASI MISOLIDA).....	49
9. Shavkat Shapiyev FARHOD GIDRO ELEKTR STANSIYASI – O‘ZBEKISTONNING ENERGETIKA USTUNI.....	57
10. Diyora Chorshanbiyeva 2016-YILDAN KEYIN O‘ZBEKISTONDA DAVLAT BOSHQARUVINING TRANSFORMATSIYASI VA YOSHLAR MASALASI.....	65
11. Sitora Nosirova DOSTONLARDA O‘ZBEK OILASINING IJTIMOIIY HAYOTDAGI KO‘RINISHLARI.....	72
12. Lutfillo Mamasaidov O‘ZBEKISTONDA SAVODSIZLIKNING TUGATILISHI VA YANGI TA‘LIM TIZIMINI TASHKIL ETILISHI TARIXIDAN.....	76



Diyora Chorshanbiyevna Chorshanbiyeva,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti,
mustaqil izlanuvchi

2016-YILDAN KEYIN O‘ZBEKISTONDA DAVLAT BOSHQARUVINING TRANSFORMATSIYASI VA YOSHLAR MASALASI

For citation: Diyora Chorshanbiyeva. TRANSFORMATION OF STATE ADMINISTRATION AND YOUTH ISSUES IN UZBEKISTAN AFTER 2016. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 3.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18942341>

ANNOTATSIYA

Maqolada 2016-yildan keyin O‘zbekistonda davlat boshqaruvi tizimida amalga oshirilgan islohotlar va ularning yoshlar masalasiga ta’siri tahlil qilinadi. Yangi boshqaruv yondashuvlari doirasida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ta’lim, bandlik va tadbirkorlik imkoniyatlarini kengaytirish masalalari yoritiladi. Tadqiqotda normativ-huquqiy hujjatlar va amaliy tajriba asosida yoshlar siyosatining ustuvor yo‘nalishlari hamda ularning samaradorligi baholanadi.

Kalit so‘zlar: Davlat boshqaruvi transformatsiyasi, yoshlar siyosati, raqamlashtirish, ochiqlik va shaffoflik, yoshlar bandligi, ta’lim islohotlari, yoshlar tadbirkorligi, fuqarolik jamiyati.

Диёра Чоршанбиевна Чоршанбиева,

Денаувский институт предпринимательства и педагогики,
самостоятельный исследователь

ТРАНСФОРМАЦИЯ ГОСУДАРСТВЕННОЙ АДМИНИСТРАЦИИ И РЕШЕНИЕ МОЛОДЕЖНЫХ ПРОБЛЕМ В УЗБЕКИСТАНЕ ПОСЛЕ 2016 ГОДА

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются реформы, проведенные в системе государственного управления в Узбекистане после 2016 года, и их влияние на вопросы молодежи. В рамках новых подходов к управлению будут освещены вопросы повышения социальной активности молодежи, расширения возможностей образования, занятости и предпринимательства. В исследовании на основе нормативно-правовых актов и практического опыта оцениваются приоритетные направления молодежной политики и их эффективность.

Ключевые слова: Трансформация государственного управления, молодежная политика, цифровизация, открытость и прозрачность, занятость молодежи, образовательные реформы, молодежное предпринимательство, гражданское общество.

Diyora Ch. Chorshanbiyeva,

Denou Institute of Entrepreneurship and Pedagogy,
independent researcher

TRANSFORMATION OF STATE ADMINISTRATION AND YOUTH ISSUES IN UZBEKISTAN AFTER 2016

ABSTRACT

This article analyzes the reforms implemented in Uzbekistan's public administration system since 2016 and their impact on youth issues. Within the framework of new governance approaches, the paper examines efforts to increase youth social engagement and expand opportunities for education, employment, and entrepreneurship. The study evaluates the priority areas of youth policy and their effectiveness based on regulatory legal documents and practical experience.

Index Terms: Transformation of public administration, youth policy, digitalization, openness and transparency, youth employment, educational reforms, youth entrepreneurship, civil society.

1. Dolzarbligi:

2016-yildan boshlab O‘zbekistonda davlat boshqaruvi tizimini tubdan isloh qilish, jamiyat hayotining barcha sohalarida ochiqlik, shaffoflik va samaradorlikni ta‘minlashga qaratilgan keng ko‘lamli transformatsiya jarayoni boshlandi. Ushbu islohotlar davlat va jamiyat boshqaruvining zamonaviy, demokratik va inson manfaatlariga yo‘naltirilgan modelini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Mazkur jarayonda yoshlar masalasi alohida strategik ahamiyat kasb etib, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, salohiyatini ro‘yobga chiqarish hamda ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ishtirokini faollashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Bugungi kunda O‘zbekiston aholisi tarkibida yoshlarning ulushi yuqori bo‘lib, bu holat mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim omil hisoblanadi. Shu bois, davlat boshqaruvi tizimidagi islohotlarning samaradorligi ko‘p jihatdan yoshlar ehtiyojlari, manfaatlari va muammolarini qanchalik hisobga olinishiga bog‘liqdir. Xususan, ta‘lim sifatini oshirish, yoshlar bandligini ta‘minlash, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish hamda ijtimoiy himoya mexanizmlarini takomillashtirish yo‘nalishlarida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

2. Metodlar.

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, ob‘yektivlik, ilmiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik, statistik tadqiqot, materialni tanlash va tasniflash tamoyillari asosida yoritilgan.

3. Tadqiqot natijalari:

2016-yildan keyingi davr O‘zbekiston tarixida davlat boshqaruvi tizimini tubdan isloh qilish va uni zamonaviy demokratik tamoyillar asosida qayta shakllantirish bosqichi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu davrda amalga oshirilgan keng ko‘lamli siyosiy, huquqiy va institutsional islohotlar mamlakatda samarali davlat boshqaruvini yo‘lga qo‘yish, aholiga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish hamda fuqarolarning, ayniqsa yoshlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faolligini kuchaytirishga qaratildi. O‘zbekiston Respublikasining 2017–2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilishning muhim huquqiy asosi bo‘lib xizmat qildi. Mazkur strategiyada davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta‘minlash, iqtisodiyotni rivojlantirish va ijtimoiy sohani modernizatsiya qilish ustuvor vazifalar sifatida belgilandi [1]. Ushbu hujjat orqali davlat boshqaruvida ochiqlik, shaffoflik, hisobdorlik, jamoatchilik nazorati va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan yangi yondashuvlar joriy etildi.

Davlat boshqaruvi tizimidagi muhim institutsional o‘zgarishlardan biri – Prezident Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasi faoliyatining qayta tashkil etilishi bo‘ldi. Ushbu tuzilmalarning vakolatlari aniq belgilab berilib, strategik rejalashtirish, tarmoqlararo muvofiqlashtirish va ijro intizomini kuchaytirish mexanizmlari takomillashtirildi. Natijada davlat qarorlarini qabul qilish jarayonida tizimlilik, tezkorlik va samaradorlik oshirildi. Shuningdek, davlat boshqaruvining quyi bo‘g‘inlarida ham tub islohotlar amalga oshirildi. Xususan, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida aholi bilan bevosita muloqot qilish, joylardagi muammolarni tezkor hal etish, hududiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda yoshlar manfaatlarini hisobga

olish tamoyillari joriy etildi. Bu borada “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili” doirasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etdi .

Davlat boshqaruvida huquqiy bazaning takomillashuvi jarayonida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar yoshlar masalasiga alohida e’tibor qaratilganini ko’rsatadi. Jumladan, “Yoshlarga oid davlat siyosati to’g’risida”gi Qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning jamiyatdagi o’rnini mustahkamlash hamda davlat boshqaruvida faol ishtirokini ta’minlashga xizmat qildi [2]. Mazkur qonun yoshlar siyosatini amalga oshirishda davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlari o’rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini belgilab berdi. Davlat boshqaruvi tizimida jamoatchilik nazoratini kuchaytirish ham muhim yo’nalishlardan biri bo’ldi. Ochiq muloqotlar, virtual qabulxonalar, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali davlat organlari faoliyatining shaffofligi ta’minlandi. Bu jarayonda yoshlar faol ishtirok etib, muammolarni ko’tarish, takliflar berish va ijtimoiy tashabbuslarni ilgari surish imkoniyatiga ega bo’ldilar [3]. Natijada yoshlarning davlat boshqaruvi jarayonlariga bo’lgan ishonchi mustahkamlandi.

Davlat xizmatlarini ko’rsatish tizimini isloh qilish ham boshqaruv modernizatsiyasining muhim tarkibiy qismi bo’ldi. “Yagona darcha” tamoyili asosida davlat xizmatlari markazlarining tashkil etilishi fuqarolarga, ayniqsa yoshlarga qulaylik yaratdi. Elektron hukumat tizimining joriy etilishi esa hujjatlarni rasmiylashtirish, murojaatlarni ko’rib chiqish va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish jarayonini soddalashtirdi. Bu esa yoshlarning davlat bilan muloqotini yanada faollashtirdi va ularning huquqiy madaniyatini oshirdi. Davlat boshqaruvida kadrlar siyosatini yangilash masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etdi. Yosh, tashabbuskor, malakali mutaxassislarni davlat xizmatiga jalb etish maqsadida ochiq tanlovlar, zamonaviy baholash tizimlari va kadrlar zaxirasini shakllantirish mexanizmlari joriy etildi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi faoliyatining yo’lga qo’yilishi bu boradagi muhim qadam bo’ldi [4]. Bu orqali yoshlarning davlat boshqaruvida faol ishtirok etishi uchun zarur sharoit yaratildi. 2016-yildan keyingi davrda O’zbekistonda davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish jarayonida ochiqlik, shaffoflik va raqamlashtirish tamoyillari ustuvor yo’nalish sifatida belgilandi. Mazkur yondashuv jamiyat hayotining barcha sohalarida, ayniqsa yoshlar siyosatini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Zamonaviy boshqaruv modeli sharoitida yoshlarning davlat bilan muloqotini soddalashtirish, ularning huquq va manfaatlarini ta’minlash hamda ijtimoiy faolligini oshirish samarali boshqaruvning asosiy mezonlaridan biri sifatida qaralmoqda. 2017-yildan boshlab Prezidentning Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonalari tizimi faoliyatining yo’lga qo’yilishi fuqarolarning, jumladan yoshlarning davlat organlariga murojaat qilish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Ushbu tizim orqali ta’lim, bandlik, uy-joy, ijtimoiy himoya va tadbirkorlik bilan bog’liq masalalar tezkor ko’rib chiqilib, muammolarni joyida hal etish mexanizmlari shakllandi [5]. Natijada yoshlarning davlat boshqaruvi institutlariga bo’lgan ishonchi mustahkamlandi.

Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi davlat xizmatlarini ko’rsatish jarayonini soddalashtirib, byurokratik to’siqlarni kamaytirdi hamda xizmatlar sifatini yaxshiladi. Elektron hukumat platformalari orqali ta’lim, bandlik, kredit, grant va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengaydi. Shu orqali yoshlarning huquqiy savodxonligi oshib, davlat bilan muloqoti qulay va tezkor tus oldi [6]. Davlat boshqaruvida ochiq ma’lumotlar tizimining shakllantirilishi yoshlarning siyosiy va ijtimoiy jarayonlarga ongli munosabatini kuchaytirdi. Davlat organlari faoliyati to’g’risidagi axborotlarning ochiq e’lon qilinishi jamoatchilik nazoratining mustahkamlanishiga, yoshlarning fuqarolik faolligi va tashabbuskorligini rivojlantirishga xizmat qildi [7].

Ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi yoshlarning bilim olish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirdi. Masofaviy ta’lim platformalari, elektron kutubxonalar, onlayn kurslar va test tizimlari orqali bilim olish shakllari diversifikatsiyalandi. Raqamli muhit yoshlarning innovatsion tafakkuri, texnologik savodxonligi va zamonaviy kasbiy ko’nikmalarini shakllantirishda muhim omilga aylandi. Mehnat bozorini raqamlashtirish natijasida yoshlarning ishga joylashish jarayoni ancha soddalashtirildi. Bo’sh ish o’rinlari, kasb-hunar o’rganish kurslari,

subsidiya va grant dasturlari haqida tezkor axborot yetkazib berish mexanizmlari yo'lga qo'yildi. Mazkur yondashuv yoshlar bandligini ta'minlashda samarali instrument sifatida namoyon bo'ldi [8]. Yoshlarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish maqsadida ochiq muloqot maydonlari, jamoatchilik kengashlari, yoshlar forumlari va onlayn muhokama platformalari faol yo'lga qo'yildi. Ushbu mexanizmlar yoshlarning fikr va takliflarini qaror qabul qilish jarayoniga jalb etish, ularning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash hamda ijtimoiy mas'uliyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Ochiqlik siyosati yoshlar tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish uchun qulay institutsional muhitni shakllantirdi. Nodavlat notijorat tashkilotlari, volontyorlik harakatlari va ijtimoiy loyihalar orqali yoshlarning jamiyat muammolarini hal etishdagi ishtiroki kuchaydi, yetakchilik salohiyati rivojlandi hamda fuqarolik faolligi oshdi.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida yoshlarning mehnat bozoridagi o'rni, ularning zamonaviy bilim va kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lishi, shuningdek, iqtisodiy faollik darajasi davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlar tizimida yoshlar bandligini ta'minlash, ta'lim sifatini oshirish va tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur yo'nalishlarda ishlab chiqilgan kompleks chora-tadbirlar yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy mustaqilligini kuchaytirish, ularning intellektual salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish hamda mamlakatning barqaror rivojlanish jarayoniga faol jalb etilishiga xizmat qilmoqda [9]. Davlat boshqaruvida yoshlar bandligi masalasiga kompleks yondashuv shakllantirilib, bu yo'nalishda institutsional, tashkiliy va moliyaviy mexanizmlar izchil ravishda takomillashtirildi. Xususan, mehnat bozorida yoshlar uchun yangi ish o'rinlarini yaratish, ularning kasbiy moslashuvchanligini oshirish va bandlikka ko'maklashish dasturlarini amalga oshirish orqali ishsizlik darajasini pasaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar kuchaytirildi. Hududiy bandlik dasturlarining ishlab chiqilishi joylardagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni inobatga olgan holda yoshlarning mehnat resurslaridan samarali foydalanishga imkon berdi.

Yoshlar bandligini ta'minlashda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususiy sektor ishtirokida tashkil etilayotgan kasb-hunar markazlari, ishlab chiqarish korxonalari va xizmat ko'rsatish tarmoqlari yoshlarni ish bilan ta'minlash bilan bir qatorda, ularning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Shu orqali mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha malakali kadrlar tayyorlash tizimi shakllanmoqda [10]. Ta'lim tizimining tubdan isloh qilinishi yoshlar siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lmoqda. Maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimining modernizatsiya qilinishi yoshlarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirdi. Oliy ta'lim muassasalari sonining ko'paytirilishi, xorijiy universitetlar filiallarining ochilishi, grant va kontrakt asosida ta'lim olish imkoniyatlarining diversifikatsiya qilinishi yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrovini sezilarli darajada oshirdi. Bu esa kadrlar tayyorlash sifatining yaxshilanishiga, yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga hamda ularning raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Kasbiy ta'lim tizimining takomillashuvi mehnat bozoriga mos kadrlar tayyorlashga yo'naltirilgan strategik vazifa sifatida belgilandi. Professional ta'lim muassasalari tarmog'ining kengaytirilishi, zamonaviy texnologiyalar asosida jihozlangan o'quv markazlarining tashkil etilishi hamda xalqaro standartlarga mos o'quv dasturlarining joriy etilishi yoshlarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Natijada yoshlarning ishga joylashish imkoniyatlari kengayib, mehnat migratsiyasiga bo'lgan ehtiyoj qisqarib bormoqda. Davlat boshqaruvi tizimida yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish alohida strategik yo'nalish sifatida shakllandi. Yoshlarning biznes tashabbuslarini moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash maqsadida imtiyozli kreditlar, grantlar, subsidiyalar va soliq yengilliklari joriy etildi. Shuningdek, biznes-inkubatorlar, texnoparklar va startap markazlari faoliyatining yo'lga qo'yilishi innovatsion g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatini yaratdi. Ushbu mexanizmlar yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirish, ularni mustaqil daromad manbalariga ega bo'lishga rag'batlantirish va yangi ish o'rinlari yaratishga undashda muhim rol o'ynamoqda [11]. Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda hududiy yondashuvning kuchaytirilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir viloyat, tuman va

shaharda yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan maxsus dasturlar ishlab chiqilib, mahalliy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlari kengaytirildi. Qishloq joylarda hunarmandchilik, xizmat ko'rsatish va agro-biznes yo'nalishlarida yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali hududiy bandlik muammolarini hal etishga qaratilgan tizimli ishlar olib borilmoqda.

Yoshlar bandligi, ta'lim va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining o'zaro integratsiyasi davlat boshqaruvida kompleks yondashuvning shakllanganidan dalolat beradi. Ta'lim tizimida egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliy faoliyatga tatbiq etish imkoniyatlarining kengaytirilishi, bandlik dasturlari orqali ish bilan ta'minlash hamda tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish yoshlarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur jarayon yoshlarning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini mustahkamlab, ularni mamlakat taraqqiyotining faol subyekti sifatida shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Globalashuv sharoitida davlat boshqaruvining samaradorligi nafaqat institutsional islohotlar, balki fuqarolarning, ayniqsa yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi, tashabbuskorligi hamda jamiyat hayotidagi bevosita ishtiroki bilan chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar tizimida yoshlarning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash, ularning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish hamda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish muhim ustuvor vazifa sifatida belgilandi. So'nggi yillarda yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmogda. Xususan, qonunchilik asoslarining takomillashuvi natijasida yoshlarning davlat boshqaruvi jarayonlarida ishtirok etish imkoniyatlari kengaydi [12]. Parlament va mahalliy kengashlar huzurida yoshlar parlamentlari, yoshlar kengashlari hamda jamoatchilik tuzilmalari faoliyatining yo'lga qo'yilishi yoshlarning siyosiy jarayonlarga jalb etilishida muhim mexanizmga aylandi. Ushbu tuzilmalar orqali yoshlar davlat siyosatining muhim masalalari bo'yicha takliflar ishlab chiqish, ijtimoiy muammolar yechimini izlash va qarorlar qabul qilish jarayonida faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Davlat boshqaruvida ochiqlik va shaffoflik tamoyillarining joriy etilishi yoshlarning siyosiy jarayonlarga bo'lgan qiziqishini kuchaytirib, ularning fuqarolik faolligini oshirishga xizmat qildi. Ochiq muloqotlar, jamoatchilik eshituvlari, onlayn platformalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlarning fikr va takliflarini erkin bildirish imkoniyatlari kengaydi. Natijada yoshlar jamiyat hayotida yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga befarq bo'lmay, faol munosabat bildirishga intila boshladilar. Yoshlarning fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatidagi ishtiroki ham sezilarli darajada oshdi. Nodavlat notijorat tashkilotlari, volontyorlik harakatlari, yoshlar ittifoqi, turli jamoat birlashmalari va ijtimoiy loyihalar doirasida yoshlar aholining ijtimoiy muammolarini hal etishga faol jalb qilinmogda [13]. Volontyorlik harakati yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatini oshirish, jamiyatda birdamlik va hamjihatlik muhitini shakllantirish hamda fuqarolik ongini rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Yoshlarning siyosiy madaniyatini yuksaltirish masalasi ham davlat boshqaruvi transformatsiyasining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ta'lim tizimida huquqiy bilimlarni kengaytirish, siyosiy savodxonlikni oshirish, yetakchilik va boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar joriy etildi. Turli seminarlar, treninglar, konferensiyalar va forumlar orqali yoshlarning siyosiy tafakkuri, tanqidiy fikrlash qobiliyati hamda tahliliy yondashuvi shakllantirilmogda. Bu esa ularning davlat va jamiyat boshqaruvida faol subyekt sifatida kamol topishiga xizmat qilmogda.

Shuningdek, yoshlarning mahalliy boshqaruv tizimidagi ishtiroki ham bosqichma-bosqich kengaymogda. Mahalla institutida yoshlar yetakchilari lavozimining joriy etilishi, hududiy yoshlar dasturlarining ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi yoshlarning joylardagi muammolarni aniqlash va hal etish jarayonida bevosita ishtirokini ta'minlamoqda. Ushbu yondashuv yoshlarning hududiy rivojlanish masalalariga mas'uliyatli munosabatini shakllantirish hamda ularni ijtimoiy faollikka undashda muhim ahamiyat kasb etmogda [14]. Yoshlarning davlat boshqaruvidagi faolligi kadrlar siyosatida ham o'z aksini topmogda. Davlat xizmatiga yosh, bilimli va tashabbuskor mutaxassislarni jalb etish maqsadida ochiq tanlovlar, malaka oshirish dasturlari va kadrlar zaxirasini shakllantirish tizimi yo'lga qo'yildi. Natijada yoshlarning davlat boshqaruvi tizimidagi ulushi oshib,

boshqaruv jarayonlariga innovatsion yondashuvlar, zamonaviy boshqaruv madaniyati va yangi tafakkur kirib keldi.

4. Xulosalar:

O‘zbekistonda 2016-yildan keyin amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar davlat boshqaruvi tizimini tubdan modernizatsiya qilish, ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini qaror toptirish, boshqaruv samaradorligini oshirish hamda fuqarolarning, ayniqsa yoshlarning ijtimoiy faolligini kuchaytirishga qaratilgan izchil siyosatning shakllanganidan dalolat beradi. Ushbu transformatsiya jarayoni mamlakatda demokratik boshqaruv modeliga bosqichma-bosqich o‘tish, davlat va jamiyat o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini mustahkamlash hamda inson manfaatlarini oliy qadriyat sifatida e‘tirof etishga asoslangan yangi taraqqiyot paradigmasining vujudga kelishiga xizmat qildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, davlat boshqaruvida amalga oshirilgan institutsional, huquqiy va tashkiliy islohotlar yoshlar masalasini strategik ustuvor yo‘nalish sifatida belgilashga imkon yaratdi. Ta‘lim tizimining tubdan isloh qilinishi, bandlikni ta‘minlash mexanizmlarining takomillashtirilishi hamda yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks dasturlar yoshlarning intellektual, iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu jarayon yoshlarni jamiyat taraqqiyotining faol subyekti sifatida shakllantirish, ularning iqtisodiy mustaqilligini ta‘minlash va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, davlat boshqaruvida ochiqlik va raqamlashtirish tamoyillarining joriy etilishi yoshlarning siyosiy jarayonlarga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirib, ularning fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish hamda jamoatchilik nazoratidagi ishtirokini kengaytirdi. Yoshlarning parlament, mahalla, nodavlat notijorat tashkilotlari va ijtimoiy loyihalar doirasidagi faolligi fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga, jamiyatda demokratik qadriyatlarining qaror topishiga hamda davlat va jamiyat o‘rtasida mustahkam muloqot muhitining shakllanishiga xizmat qilmoqda. Umuman olganda, O‘zbekistonda davlat boshqaruvi tizimining transformatsiyasi yoshlar siyosatini yangi sifat bosqichiga olib chiqib, yoshlarning mamlakat taraqqiyotidagi rolini sezilarli darajada oshirdi. Ushbu jarayon mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanish strategiyasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, yoshlarning intellektual, iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatini to‘liq safarbar etish orqali Yangi O‘zbekistonning barpo etilishiga mustahkam zamin yaratmoqda.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-son Farmoni. “O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”. – Toshkent, 2017. (1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-4947 dated February 7, 2017. “Strategy of Actions for the Development of the Republic of Uzbekistan”. – Tashkent, 2017.)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. – <https://www.president.uz> (2. Official website of the President of the Republic of Uzbekistan.)
3. “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. – Toshkent, 2016. (Law of the Republic of Uzbekistan “On State Youth Policy”. – Tashkent, 2016)
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi rasmiy portali. – <https://www.gov.uz> (4. Official portal of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan.)
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF–6079-son Farmoni.
6. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. – Toshkent, 2020.
7. Yovqochev. Sh, Umarov J. Raqamli transformatsiya strategiyasi: O‘zbekiston misolida // Scientific practical conference. – 2024. (6. Yovkochev. Sh, Umarov

- J. Digital transformation strategy: the case of Uzbekistan // Scientific practical conference. – 2024.)
8. Raqamli O‘zbekiston – 2030 strategiyasining iqtisodiy samaradorliklari // Journal of Universal Science Research. – 2024. (Raqamli O‘zbekiston – 2030 strategiyasining iqtisodiy samaradorliklari // Journal of Universal Science Research. – 2024.)
 9. O‘zbekistonda raqamli hukumat: byurokratik to‘siqlar keskin qisqaradi // Elektron hukumat portali. – 2024. (Digital government in Uzbekistan: bureaucratic barriers will be sharply reduced // Electronic Government Portal. – 2024.)
 10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-iyundagi PF–5750-son Farmoni. “O‘zbekistonda yoshlar siyosatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
 11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. “Yoshlar bandligini ta‘minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi”. – Toshkent, 2022.
 12. O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi rasmiy portali. <https://yoshlar.gov.uz>.
 13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi PF–81-son Farmoni. “Yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularning jamiyatdagi rolini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
 14. O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi. “Yoshlar siyosati va fuqarolik faolligi bo‘yicha tahliliy hisobot”. – Toshkent, 2023.
 15. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti. “Yoshlarning siyosiy faolligi va fuqarolik jamiyati”. – Toshkent, 2024. (Institute of Legislative Problems and Parliamentary Studies under the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan. “Youth Political Activity and Civil Society.” – Tashkent, 2024.)

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000